



Yevropa Ittifoqi moliyaviy  
ko'magi bilan ta'minlangan



unicef   
Har bir bola uchun

SURXONDARYO VILOYATIDA INKLYUZIV TA'LIM, IJTIMOYIY XIZMATLAR VA  
HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

YEVROPA ITTIFOQI VA UNICEF MOLIYALASHTIRGAN HAMDA UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN

# NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNING HUQUQLARI



Nogironligi bo'lgan bolalar ham biz yashayotgan jamiyatimizning muhim bir qismi hamda teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Ularning huquqlari turli xil hujjatlarda belgilab berilgan.

Qo'llanma yordamida nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlari haqida batafsil to'xtab o'tamiz. Nogironligi bo'lgan bolalarning quyidagi huquqlari haqida batafsil ma'lumot beramiz:

**1**

**Ta'lim olish huquqi**

**2**

**Tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi**

**3**

**Mehnat qilish huquqi**

**4**

**Ijtimoiy yordam olish huquqi**

**5**

**Murojaat qilish huquqi**

## **O'zbekistonda yashovchi barcha bolalar teng huquqqa ega.**

Nogironligi bo'lgan bolalar xalqaro hujjatlarda va O'zbekiston qonunlarida belgilangan huquqlarga ega.



O'zbekistonda nogiron bolalar huquqlarini himoya qiluvchi qonunning nomi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" gi Qonun hisoblanadi.

Nogironligi bo'lgan bolalar haqidagi asosiy xalqaro hujjatlarga Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" va BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi" Konvensiyasi kiradi.



Nogironligi bo'lgan bolalar (bola) deganda turli to'siqlar bilan o'zaro munosabatda ularning boshqalar bilan teng holda jamiyat hayotida to'la va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan barqaror jismoniy, psixik, intellektual yoki sensor buzilishlari bo'lgan bolalar hisoblandi.

***"Nogironlar huquqlari to'g'risidagi" Konvensiya***

Nogiron bolalarning jamiyatda to'liq ishtirok etishi va o'z huquqlari hamda erkinliklaridan foydalanishda ayrim to'siqlarga, qiyinchiliklarga uchrashi mumkin.

Masalan binolarda yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushishida, transportlarga chiqish va tushishida va bunga o'xshagan ko'plab misollarni keltirsak bo'ladi.



Nogiron bolalar to'qnash kelayotgan bunga o'xshagan to'siqlarni bartaraf etish hamda teng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Nogiron bolalar to'qnash kelayotgan bunga o'xshagan to'siqlarni bartaraf etish hamda teng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.



Nogironligi bo'lgan bolalar yashayotgan jamiyatimizning teng huquqli fuqarolari hisoblanadi. Albatta, nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Kimdir cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, har qanday kamsitish taqiqlanadi, ya'ni nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash (nogironligi bo'lgan bolalar bilan o'ynamaslik, ular bilan bir partada o'tirmaslik kabilar), shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar (masalan, nogiron bolalar va kattalar uchun qulay transportning yo'qligi, jamoat binolarida panduslar, maxsus liftlarning o'rnatilmaganligi, ko'rish qobiliyati zaif odamlar uchun taktil qarama-qarshi belgilari va boshqalar) va xizmatlardan (masalan, nogironligi sababli tibbiy yordam ko'rsatishdan bosh tortish, nogiron bolani maktabga qabul qilmaslik) foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi.

Nogironligi bo'lgan bolalar bog'cha, maktab, kollej, litsey yoki oliy bilim yurti hisoblanadigan universitet va institutlarda o'qishlari mumkin. Bolalar mana shu maskanlarda bilim olib, ko'proq kitob o'qishi, turli xorijiy tillarni o'rganishi, ko'p do'stlar orttirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.


Bolalar birinchi o'qishni bog'chada olishganidan keyin maktabda davom ettirishadi. Nogironligi bo'lgan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib kitoblar hamda boshqa darsliklar bilan ta'minlanishi kerak.



Ko'zi ojiz bolalar uchun turli xil qiziqarli kitoblarni o'qishi, bilimlarini oshirishi uchun Brayl alifbosida kitoblar mavjud bo'lishi kerak.



Ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan bolalar uchun ovozli variantdagi harflar, ovozli adabiyot, shu jumladan guruhlarda o'qitish uchun yordamchi ovoz tizimlari bo'lishi kerak. Eshitish qobiliyati zaif bo'lganlar uchun mimika va imo-ishora tiliga tarjima bilan ta'minlanishi kerak.





Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining 2% miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi.

Ya'ni kirish imtihonlarida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30%idan kam (maksimal ball – 189 ball, uning 30%i esa 56,7 ballni tashkil qiladi) bo'lmagan ball to'plagan nogironligi bo'lgan shaxslar ballar ro'yxatiga qat'iy rioya etilgan holda, qo'shimcha 2%li davlat granti kvotalari doirasida talablikka tavsiya etiladi.



*Masalan, jami 100 ta talaba qabul qiladigan yo'nalishda 2 ta kvota ajratiladi. Ushbu yo'nalishga jami 5 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar hujjat topshirgan deylik. Bunday vaziyatda o'sha 5 nafarning barchasi grantga qabul qilinmaydi, ular orasida eng ko'p ball olgan 2 nafari byudjetga tavsiya etiladi. Qolgan 3 nafar shaxslar esa umumiy tartibda tanlovda qatnashadi.*



**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son Farmoni, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

[-https://lex.uz/docs/3436192](https://lex.uz/docs/3436192)

Oliy ta'lim muassasiga o'qishga kirish uchun test topshirmoqchi bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalar hech qanday to'lovsiz istalgan universitetga o'zlarining hujjatlarini topshirishlari mumkin. Ya'ni nogironligi bo'lgan shaxslar bu to'lovdan ozod etilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslar universitet yoki institutlarga o'qishga topshirganda hech qanday to'lovsiz test sinovlarida ishtirok etishi mumkin.




**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi "Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4319-son qarori, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

[-https://lex.uz/uz/docs/-4334802](https://lex.uz/uz/docs/-4334802)

Jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, boshqa bolalar singari imkoniyatlarini ko'rsata olishida inklyuziv ta'lim alohida o'rin tutadi.

Qonunchilikda ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim bilan ta'minlanishi belgilab berilgan.



**Inklyuziv ta'lim deganda** – alohida ta'lim ehtiyojlari va hamma bolalarning imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, ta'lim muassasalarida o'qiyotgan barcha o'quvchi bolalar uchun ta'lim olishdan teng foydalanishi tushuniladi.


Boshqa so'z bilan aytganda, bitta sinfda nogironligi bo'lgan bolalar barcha bolalar bilan birgalikda ta'lim oladi hamda teng shart-sharoitlar yaratib beriladi. O'qish tomondan kamsitish, ajratib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

Inklyuziv ta'lim beradigan maktab va boshqa tashkilotlarda nogironligi bo'lgan bolalarning bemalol harakatlanishi uchun barcha sharoitlar bilan ta'minlangan holda bo'lishi lozim. Masalan turli xil eshitish moslamalari, Brayl alifbosidagi va boshqa muhim kitoblar, ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich kabilar.



**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

–<https://lex.uz/uz/docs/-5044711>



Nogironligi bo'lgan bolalar ham tibbiy xizmatdan teng foydalanish huquqiga ega.

Davlat tomonidan ularga **bepul, malakali tibbiy yordam** olishi uchun choralar, imkoniyatlar yaratiladi.

Kasal bo'lganda tibbiyot maskanlarda davolanishi, tibbiy xizmatlardan foydalanishi mumkin.



Nogironligi bo'lgan bolalar kasal bo'lganda yoki sog'lig'ini qayta tiklash zarur bo'lganda sog'lomlashtirish markazlarida bepul davolanishi mumkin. Bunday markazlar sanatoriy-kurort nomi bilan ataladi.

Sanatoriy-kurortda nogironligi bo'lgan bolalarning davolanishi uchun zarur bo'lgan tibbiy buyumlar, maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari beriladi.



**Manba:** O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

-<https://lex.uz/docs/-5049511>



Nogironligi bo'lgan bolalar mehnat qonunchiligi bo'yicha turli tashkilot va idoralarda ishlashlari mumkin. Shuningdek tadbirkorlik qilishi yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.



Ularni ishga qabul qilish, ishga yollash, mehnat faoliyatini olib borish, lavozimi ko'tarilishida nogironlik belgisi sabab kam-sitishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari nogironligi bo'lgan bolalarni tungi vaqtda ishga, shuningdek ishdan tashqari vaqtdagi ishlarga va dam olish kunlari ishga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, ular har yili beriladigan mehnat ta'tilidan foydalanib, dam olishlari mumkin.

Mehnat kodeksiga muvofiq, **16 yoshdan** ishga qabul qilinaadi. **Faqatgina 15 yoshdan** bolaning ota-onasidan birining (ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxsning) yozma roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

15 yoshga to'lmagan shaxslarni 219 turdagi kasb va ishlar da ishlashi mumkin. Masalan, futbol hakami, fotograf, dizayner, suxandon, suzish bo'yicha yo'riqchi bo'lib.



**Manba:** Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-avgustdagi "Madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalari xodimlarining mehnat munosabatlarini tartibga solish to'g'risida"gi 419-son qarori, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

[-https://api-portal.gov.uz/uploads/22e100c5-92a6-8336-2274-ece320abcd97\\_media\\_.pdf](https://api-portal.gov.uz/uploads/22e100c5-92a6-8336-2274-ece320abcd97_media_.pdf)





Bir hafta davomida davomiyligi **16 yoshdan 18 yoshgacha** bo'lgan xodimlar uchun ish vaqti **36 soat, 15 yoshdan 16 yoshgacha** bo'lgan bolalar uchun **24 soat** belgilangan.

**18 yoshgacha** bo'lgan bolalarga har yili **30 kalendar kun** uzaytirilgan ta'til beriladi.



**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin – <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>



Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordam berish (pensiya, nafaqa to'lash, ijtimoiy va tibbiy xizmatlardan foydalanish kabilar) orqali munosib turmush sharoitlarida yashashi uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi.

Nogironligi bo'lgan barcha shaxslarga qonunchilikda ko'rsatib o'tilgan ijtimoiy yordam turlarining barchasi ko'rsatiladi.



### **Ijtimoiy yordam turlariga quyidagilar kiritilgan:**

- pul to'lovlari olishi (bularga pensiya, nafaqa olish va boshqa to'lovlar kiradi).

*Hozirgi kunda bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqaning eng kam miqdori – 800 000 so'm (2023-yildagi miqdor) etib belgilangan.*

*Nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanishi uchun davlat xizmatlari markazlari yoki YAIDXP (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal – my.gov.uz) orqali murojaat qilinadi.*

- **o'rindiqli aravachalar, protez-ortopediya moslamalari** (harakatlanishida muammosi bor shaxslar uchun yasama qo'l, oyoq protezlari taqdim etilishi mumkin), **ovoz kuchaytiruvchi apparatlar** (masalan eshitishida muammosi bor shaxslar), **subtitrli yoki surdotarjimali videomateriallar** (eshitishida muammosi bor shaxslar uchun yangilik yoki turli kinolar so'zlar yordamida tushuntiriladi) bilan ta'minlash.


Tegishli tibbiy xulosa asosida muhtoj shaxslarga (18 yoshgacha va undan katta yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslarga) protez-ortopediya moslamalari (masalan qo'l, oyoq protezlari, korset) va rehabilitatsiya qilishning texnik vositalari (qo'ltiq tayog, hasa, eshitish moslamasi) beriladi.



**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilning 1-iyuldagi "Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 411-son qarori, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

– <https://lex.uz/docs/-5485696>

- tibbiy, ijtimoiy, kasbiy, jismoniy reabilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar va maishiy xizmatlar (Nogironligi bo'lgan bolaga kasal bo'lib, shifoxonada davolanish uchun yotqizilgan paytida bolaning ota-onasiga (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsga) uning yonida birga bo'lishga ruxsat beriladi;





**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yilning 10-avgustdagi "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 237-son qarori, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

-<https://lex.uz/docs/-2718856>

- transport xizmatlari (nogironligi bo'lgan ko'zi ojiz shaxslar hamda ularga hamrohlik qiluvchi shaxslar shahar yo'lovchilar transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqiga ega.



**Manba:** O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi "Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-278-I-son Qonuni, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

- <https://lex.uz/docs/-39646>

Bolalar o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan davlat organlariga, tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga belgilangan tartibda mustaqil ravishda murojaat (arizalar, shikoyatlar, takliflar) qilish huquqiga ega.



Bolalarning murojaatlarini ko'rib chiqishda ularning **qonuniy vakillari** (ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslarga), shuningdek **vasiylik va homiylik organlari** ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

Bolalarning murojaati boshqa idora yoki tashkilotga tegishli bo'lsa, ushbu idora yoki tashkilotga yuborilishi shart hisoblanadi.



**Manba:** O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-son Qonuni, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

[-https://lex.uz/docs/-3336169](https://lex.uz/docs/-3336169)

Bolalar oilada o'zi tegishli masalalar bo'yicha **o'zining fikrlarini** bildirishlari mumkin.

Bolalarning bildirgan fikrlarini uning yoshidan qat'i nazar, vakolatli bo'lgan organlar tomonidan ko'rib chiqilishi hamda bolalarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilinishi kerak.





**Manba:** O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-son Qonuni, bu havola orqali hujjat matni bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin

– <https://lex.uz/docs/-1297315#-1297741>

Nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlari qolgan barcha bolalardek bir xil bo'lib, ularni ajratish yoki kamsitishga yo'l qo'yilmaydi. Nogiron bo'lgan bolalar biz uchun qadrlil bo'lish bilan birgalikda, aziz insonlarimizdan biri hisobladi.

Broshurada nogironligi bo'lgan bolalarning qanday huquqlari borligi hamda ularning har biriga to'xtalib o'tiladi.





Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz sheriklarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib borib, bunda bizning asosiy e'tiborimiz dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z qarashlarini amalga oshirish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

### **Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi**

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: [delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu](mailto:delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu)

Website: [www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan\\_en](http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en)

Facebook: [www.facebook.com/edudeluzb](http://www.facebook.com/edudeluzb)

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: [info@adliya.uz](mailto:info@adliya.uz)

Website: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)

### **BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi**

Poytakht Business Markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: [tashkent@unicef.org](mailto:tashkent@unicef.org)

Website: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>

Facebook: [@unicefuzbekistan](https://www.facebook.com/unicefuzbekistan)